

QORAQALPOQ XALQINING JIROVLARI KUYLAGAN DOSTONLAR

Kudaybergenov Nursultan Paxratdin uli

Ó'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8313556>

Xulosa. Shu maqolada xalqimizning jirovlari «Qiyas jirov», «Esemurat jirov», «Qulmurod jirov» kuylagan dostonlar haqida aytiladi.

Kalit so'zlar: jirovlar, «keneges-mang'it», «Kobikli», «Tupchaklar», «Maspatsha», «Qoblan», «Sharyar».

Qiyas jirov kuylagan «Maspatsha» dostoni. Bu dostonda Maspatsmoni keneges qabilasidan deyiladi. Qoraqalpoqlarning keneges-mang'it qabilasi Buxoro xonlig'iga qarashli davrida vujudga kelgan doston bo'lib hisoblanadi. Qoraqalpoqlarning keneges- mang'it qabilalari hozirgi Qoraqalpog'istonning Kegeyli tumanining atrofida joylashgan. Qoraqalpoqlarning keneges- mang'it qabilasi Xorazmga joylashmasdan muqaddam Buxoro xonligi qaramog'ida bo'lmagan. Bu dostonda Buxoro, Samarqand atrofidagi yer nomlari so'z etiladi. Qoraqalpoqlar yuqoridagi yer nomlarin Buxoro deb tushunadi. U yerda Bulingir, Sarsabiz va Chirchik daryosi degan yer nomlari uchrab turadi, mana shu dostonning chiqish manbayin Buxoro va Samarqand atrofidagi joylar bilan bog'lab izlash ishlari bo'ldi, Qiyas jirovning kuylab yurgan «Bozog'lon» dostoni da o'sha davrda vujudga kelgan doston bo'lib hisoblanadi.[1]

Esemurat jirov kuylagan «Qoblon» dostoni. Qoraqalpoqlarning eng eski zamonnan kelayotgan katta adabiy merosi «Qoblon» dostoni. Bu dostoning sharqiga kelsak Qoblonni Qoraqalpoqlarning qipchoq qabilasidan deyiladi. Qoblon o'z qabilasiga qora qipchoq, undan so'ng toza qipchoq deb nomlaydi. Qoblon qipchoq qabilasining «qoraqipchog'i» deyiladi. Qipchoqlar qoraqalpoqlarda «o'n to'rt» qabilaning katta bitta qabiylasi. Bu yerda «qora» degan oddiy fuqaro degan manoga ega. Ular Qoraqalpog'istonning Chimboy atrofida joylashgan, so'ngra o'tiriqchilikka aylangan, xalqning biri. Qoraqalpoq dostonlarida «Alpomish» da Qo'ng'iroq qabilasi «Yoyilgan» bo'lsa, u qipchoqlar qabilasi «To'qsaba» bo'lib nomlanadi. U Qoblan dostonida bu uron keyin ola «Qizir Iliyas» degan nom bilan almashtirilgan. Qoraqalpoq jirovlarining repertuaridagi Qoblan dostonida izlash ishlarida bizni juda qiziqarli masalalar uchrab o'tiladi. Qoraqalpoqlarda «Qoblon» dostoni mong'ollar topilishidan muqaddam, qoraqalpoqlar Kiev rusin, R

Rossiyaning janubiy dalalarin va Qora dengiz, Azov dengizi dalalarinda joylashgan davirda vujudga kelgan doston bo'lib topiladi. Bu dostonning paydo bo'lishi o'sha joylarda izlash zarur boladi. X-XII asrlarda qoraqalpoqlarning qabila ittifoqlari «черные клобуки» (qora bo'riklilar) bo'lib nomlanadi, poloveclerga zid bo'lgan urushta rus kniyazlari tomonida bo'lgani to'g'risida rusning eski zamon yozmalarida bayon etiladi. «Qoblon» dostonida «Aziuli» (Azov) «Ochtarxon dengizi degan geografik atamalar bir necha marta takrorlanadi. Barcha dostonlarda bitta xarakterli narsa, ayrim qatorlar, yer otlari, jirovlar tomonidan turli dostonlarni kuylaganda biridan-biriga o'tib ketadi. Masalan, «Qoblon»dagi «Samarqand», «no'goyli» degan so'zlar so'nggi jirovlar tomonidan qo'shilgan bo'lishi joyid. Dostonlar qancha o'zgarishga uchragan bilan uning dastlabki vujudga kelgan davirdagi negizi ko'rinib turadi. Manashu tufayli bu dostonda geografik yer otlari Azuvli qalasi degan so'zlar saqlangan. Dostonda dushman Ko'bikli bo'lib nomlanadi. Mashxur rus dostoni « Igor otlanmoqliki to'g'risidagi doston» degan rus adabiyotini yozma estaligidagi dushman «kobyak» bo'lib

nomlanadi. Bu «Kobikli», «Kobyak» bo'lib atalgan dushmanlar bizning fikrimizcha bir-biri bilan chambarchas bo'lib to'lib. Qoraqalpoqlarning bu davridagi Kiev Rusi bilan bo'lgan aloqa to'g'risida jujatlardan misollar keltiramiz: bu davrda hozirgi qoraqalpoqlarning Kiev Rossiyasi bilan aloqasi haqida Akademik Grekov: O'tlanishiga chorniy klobuklar ham ishtirok qilishdi, bular o'zining tarixiy taqdirini Kiev Rossiyasi bilan ko'p vaqtlardan beri bog'lagan edilar. Poleveclarni tamomila yengib chiqdi[2] deydi. «Igor o'tlanishi to'g'risida doston»ni hozirgi zamon rus tiliga tarjimalagan Aleksey Yugov o'zining tarjimasining tushinigi shu davrda har xil ko'chma qabila ittifoqlarining nomlarini ayta kelib mana shunaqa deydi:

«Tupchaklar» bu xato emasmikan. To'rshaklar emasmikan, «Tupchaklar» haqida Kiev zamon yozmasidan biz xech narsa ko'rmaymiz, lekin Kiev zamon yozmasida qalpoqlar (qora) bo'lib atalgan ko'chma qabila ittifoqlarining to'lib o'tirgan nomlari yozilgani ko'rinadi. Bu qalpoqlar rus knyazlarining o'lganiga yig'lagan, ular rus yeri rus knyazining hurmatiga, otamizga boshimizni berishga tayyor bo'lishga keldik deyishgan».[3] Igor o'tlanishdaglar «topchaklar» «qipchoqlar» bo'lishi ehtimol. Tarixta har bir xaliqning ismin boshqa bir xalq o'zicha dodalaydi. Yillar o'tib qabilalar birlashib boshqa bir unvonga ega bo'lib o'tiradi. Qoraqalpoq dostonlariga bir xarakterli narsa qahramon qiyinchilikda o'zining ota bobolarin fahir qilib chiqarib, unga sig'inadi. Shu davirdagi qabila birlashmasining ota bobolariga sig'inishi to'g'risida bolgan odat "igor o'tlanishi"da ham aytib o'tiladi. «Qoblon» dostoni bilan «Igor o'tlonmasi to'g'risida doston» ning bir-biriga o'xshashligi to'g'risida qoraqalpoq dostonlari ko'b ekspeditsiya o'tkazgan. Qobil Maqsetov shunday fikr ko'rsatadi:

«Qoblonning or nomus, elga tashqaridan dushman eritmaslik, dushmanni oz o'rninida yo'q qilishga yumshaladi, bu hususiyat ruslarning «Igor polki haqidagi so'z», dostonidagi knyaz Igor xarakterini esga tushiradi, sababi Knyaz Igor ham oz kuchin vatanining mustaqilligin saqlash uchun sirtqi dushmanni oz o'rnida yo'q qilishga harakat qiladi».[4] «Qoblon» dostoni badiiy asar, mana sonlikdan tarixta bolgan barcha hodisalar ichiga qamrab olmaydi. Yuqorida aytilgan dalillarga suyana o'tirib, bu dostonning tupki manbasi Igor o'tlanish davridagi vaziyatlar bilan bog'lab izlagan ma'qul boladi. Igor o'tlanishidagi uchratadigan turk so'zlari, shu davrdagi qoraqalpoq tiliga kirib shu davirgacha saqlanib kelgani behosdan bo'lgan emas: uni erta zamondagi munosabattan bo'lgan deb tushinish zurrur. «Igor o'tlanish to'g'risida jir» dostonidagi turk xalqlardan kirib kelgan so'zlar tog'risida unvonli tyurkologlar, xususan P. M. Melioranskiy xám S. Ye. Malov o'zlar mehnatida ko'rsatgan edi. Yuqorida aytilgan misollarga yondosha o'tirib, «Qoblon» dostoni pecheneg-qipchoq davrida vujudga kelgan doston degan fikrni bildirgimiz keladi.

Qulmurod jirov kuylagan «Sharyor» dostoni. Qoraqalpoqlarning eng eski zamonnan beri kelayotgan adebiy merosi «Sharyor» dostonidir. Dostonning boshlanish syujeti barcha xalqlarga, mushtarak. Masalan, ulug' rus yozuvchisi A. S. Pushkin ishlab chiqqan Rusning «Soltan podsho haqida ertak» da, «Maspasho» ga o'qish boshlanadi. Bu dostonning syujetlik qurilishi qozoqlardagi «Munglik-zorliq», «o'zbeklardagi» «Saxio-qiron» va «Ayparsha» dostonlariga kuta o'xshash keladi. «Sharyor» dostoni syujetlik qurilishi, kompozitsiyasi va so'z chevarligi tarafidan yaqshi ishlangan doston. Qoraqalpoq jirovlari bu dostonni juda sevib kuylaydi. Bu dostonni qo'shni xalqlarning dostoni bilan solishtira izlagani joyid.[5]

References:

1. Қ. Айымбетов «Халық даналығы». Нөкис «Қарақалпақстан» 1988 103-бет
2. Академик В. Д. Греков. писатель. 1945 г. ст.23
3. Алексей Югов Обаснование перевод, «Слова» 1945 стр. 152-153
4. Қ Мәсетов «Қоблан» «Совет Қарақалпақстаны», 1959, 24-ХІІ
5. Қ. Айымбетов «Халық даналығы». Нөкис «Қарақалпақстан» 1988 103-104 бет
6. Tajimuratova, S. (2023). FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY. Modern Science and Research, 2(5), 196-203.
7. Тажимуратова, Ш. С. (2023). САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ